

*Yusupova Shoxista Saparboyevna**Urganch Ranch texnologiya universiteti**Lingvistika (ingliz tili) 1-kurs magistranti*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI EVFEMIZMLARINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Kirish. Til madaniyati umummadaniyatning ajralmas qismi bo'lib, uning yuksalishida kuchli quroldir. Til ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham har bir kishidan tilning taraqqiyot qonunlarini mukammal bilishi, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakl topadi va faollashadi. Evfemizm orqali esa xalq ruhiyati, dunyoqarashi, ijtimoiy-madaniy munosabatlar aks etadi. Unda xalqning milliy qadriyatlari, etik va estetik qarashlari mujassamlangan bo'ladi.

Adabiyotlar sharxi. Dunyo tilshunosligida evfemizm hodisasi e'tirof etilgan va jiddiy o'rganilgan ishlar XX asrning so'nggi o'n yilligida yuzaga kelgan. Rus tilshunosligida V.Z.Sannikov, V.P. Moskvina, E.P.Senichkina, L.A.Bulaxovskiy, B.A.Larin, L.P.Krisin; ingliz tilshunosligida J.S.Nimen va J.G.Silver o'z tadqiqot ishlarida o'rganganlar. Xususan, A.V.Osipov, E.N.Maligina, S.A.Agadjanyan, A.N.Kudryasheva, G.A.Abramova, E.V.Pikalova tadqiqotlarida leksikasining turli qirralari rus va ingliz tili materiallari asosida yoritilib, frazeologik evfemizmlarga ham muayyan darajada e'tibor qaratilgan.

Muhokama va natijalar. Evfemizm lisoniy hodisasi har ikki tilda (ingliz va o'zbek) ham ijobiy baholanadi. Ingliz xalqi ushbu hodisaga so'zlovchiga bo'lgan hurmatning ifodasi deb qaraydilar. O'zbek tilida evfemizm hodisasi —hurmat" va —andisha" tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda ifoda etiladi.

Ma'lumki, turli til va madaniyatlarda ustunlik til birliklarining ayrim turlariga berildi. Masalan, o'zbek madaniyatida begona kishiga murojaat etish borasida qarindoshlik atamalaridan: «aka», «akajon», «tog'a», «amaki», «xola», «yanga», «kelin» atamaları turli yoshdagilar bilan muloqotlarda qo'llaniladi. Muloqotning ichki parametrlari, ya'ni kundalik muloqot va qat'iy marosimlangan vaziyatlarda muallif nutq klishealaridan – bir qolipdagi yoki siyqasi chiqqan gaplardan foydalanilganini kuzatish mumkin.

Bu muammo bo'yicha A.Omonturdiyev, Sh.Gulyamova va boshqalar qator tadqiqotlar olib borganlar. Masalan, rus tilida so'zlashuvchi ikki kishi an'anaviy salomlashishda, «Ishlar qanday?» desa, o'zbeklar ko'pincha «Uydagilar yaxshimi?» deb so'rashishlari milliy qadriyatlardagi tafovutlardan darak beradi.

Yuqorida keltirilgan misollar, hamda muallif kuzatuvlari va lingvistik tahlil tajribasi asl milliy-madaniy tamoyilni – tilda ifodalangan madaniyat ob'ektini tahlil qilish muhimligi, til va tildan tashqari birligi, evfema chegarasidan chiqish natijasi, madaniyatni uning ichiga singib ketishi sifatida ta'riflash imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, ikki til evfemizatsiyasining tipologiyasi to'g'risida olingan va to'plangan barcha bilimlar muallif tomonidan ingliz va o'zbek tillari lug'atlarida yanada tizimlashtirildi, tavsiflandi. Shunday qilib, lug'at bir tomondan, evfemizmlar semantikasi sohasida ishlab chiqiluvchi ma'lumotlarni umumlashtirsa, ikkinchi tomondan, kelgusidagi amaliy va nazariy tadqiqotlar uchun manba va asos bo'ladi, modomiki, unda ingliz va o'zbek tillari madaniyatlararo evfemizmlari, mentaliteti to'g'risida barcha ma'lumotlar yig'iladi, tizimlashtiriladi, umumlashtiriladi. Kompleks nuqtai nazaridan taqdim etiladi. Bunday holatda evfemizmlar nomlari leksikografik tavsif birliklari sifatida o'ganiladi.

Shu nuqtai nazardan tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizmlarni taqqoslashda milliy-madaniy xususiyatlarni talqin qilish modeli ishlab chiqildi:

- ingliz va o'zbek tillarining evfemizmlarini taqqoslashning milliy-madaniy ma'nosi;
- ingliz evfemizmining o'zbek evfemizmining ahamiyati va tushunchasi ahamiyati va tushunchasi;
- ingliz va o'zbek xalqlarining milliy moddiy va ma'naviy madaniyat sohasi.

Tadqiqot ingliz va o'zbek tillari evfemizmlarining qiyosiy-madaniy xususiyatlari predmeti bo'lib, ikki turli kod, ya'ni til va madaniyatning o'zaro ta'siri natijasida til belgilarining madaniy semantikasini o'rgana oluvchi madaniy xarakter omillarini belgilovchi til evfemizmlari, shaxsning nutq faoliyati va nutq xulq-atvori yaqqol tarzda ajralib turishini ko'rsatadi. Zero, tilga ega har bir shaxs bir vaqtning o'zida madaniyat ustunligiga ham ega bo'ladi. Bu esa, turli til va madaniyatlarga ham xosdir.

Tahlil davomida o'zbek millatiga xos «sovchilik», «oilaviy rishtalar», «bokiralik», «voyaga etganlik» singari evfemizmlar ingliz lug'atidagi funksional-semantik ma'lumotlarga nisbatan ko'proq ekanligi aniqlangan. SHundan ma'lumki, ingliz tilida voyaga etganlikni bildiruvchi evfemizmlarning funksional-semantik guruhi nisbatan kam.

E.P.Senichkinaning «Ingliz tili evfemizmlari lug'ati»da yoshlarning voyaga etganligini bildiruvchi evfemizmlar keltirilmagan. O'zbek tilida bu holat, aksincha. Birgina A.Omonturdievning «O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati»da shu so'z o'rniga almashtirish uchun 15 dan ortiq evfemizmlar qayd etilgan.

Evfemizmlarni etarlicha adekvat shaklda taqqoslashdagi asosiy to'siq turli tillar tushunchaviy tizimlarining nomuvofiqligidir. SHuning uchun ham, keltirilgan leksemalarning aksariyatini tarjima qilganda leksemaga xos denotativ va konnotativ semalarni asl tilida tushuntirib beruvchi ozmi-ko'pmi batafsil milliy-madaniy izohlar tavsiya etiladi.

Ingliz va o'zbek tillarining kichik sonli tematik guruhining darajali klassifikatsiyasi evfemizmlar milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy-funksional talqin qilishda evfemizmlar ikki turga bo'linadi (oilaviy rishtalar bilan bog'liq evfemizmlar bunga misol bo'la oladi).

1. Leksik bir so'zli evfemizmlar:

- 1) sovchilik bilan bog'liq evfemizmlar funksional-semantik guruhli: evf. aytilmoq, atalmoq, bag'ishlanmoq, unashtirilmoq – unashtirmoq o'rnida;
- 2) oilaviy rishtalar bilan bog'liq funksional-semantik guruhli evfemizmlar: evf. bo'lmoq, olmoq, qovushmoq – turmush qurmoq ma'nosida va boshqalar.
- 3) er va xotinning ajralishi bilan bog'liq funksional-semantik guruhlar evfemizmlari: o'zb. evf. ayrilmoq – ajrashmoq, nikohni bekor qilish o'rnida;
- 4) ajrashgan yoki yolg'iz ayolni belgilash bilan bog'liq funksional-semantik guruhlar evfemizmlari: evf. beva, tul, esir, yolg'iz, toq, yakka, o'zi – ersiz o'rnida.

2. Turli darajadagi komponentlar birlashuvining evfemik birikmalari, masalan:

- 1) sovchilik bilan bog'liq evfemizmlarning funksional-semantik guruhi: ingl. evf. come to an agreement (bir fikrga kelish), give a ring (uzukni sovg'a qilish), make an offer (o'z nikohiga o'tishga taklif qilish) – unashtirish o'rnida; o'zb. evf. boshini bog'lamoq, nasibasi-nasibasiga qo'shilmoq, nishona bo'lmoq – unashtirmoq va boshqalar.
- 2) oila rishtalari bilan bog'liq evfemizmlarning funksional-semantik guruhlar: ingl. evf. bind oneself with family ties (o'zini oila rishtalari bilan bog'lash), get married (nikohdan o'tish), lead one down the aisle (er-xotin bo'lish), conclude a marriage union (er-xotinlik rishtalari), create a family (oilani qurish), become one family (bir oila bo'lish), settle down to married life (oilali bo'lish), bring a wife to the house (uyga rafiqani olib kelish), hang a yoke around your neck (bo'yinga bo'yinturiq osib qo'yish), start a life together (birgalikda hayot qurish) – uylanish

ma`nosida; o`zb. evf. bir yostiqqa bosh qo`ymoq, bir juft bo`lib kelmoq, boshini ikkita qilmoq, yo`ldosh qilmoq – uylanish, umr yo`ldosh ma`nosida;

3) er va xotinning ajrashish jarayoni bilan bog`liq evfemizmlarning funksional-semantik guruhi: ingl. evf. divorce (nikohni bekor qilish), did not get along (xarakterlari mos kelmadi) – er xotin ajralishi o`rnida; o`zb. evf.: ayrilib ketmoq, nikohi buzilmoq – ajrashish o`rnida va boshqalar.

4) ajrashgan yoki yolg`iz ayolga aloqador evfemizmlarning funksional-semantik guruhi: ingl. evf. free woman (boshi ochiq ayol), without husband (ersiz) – yolg`iz o`rnida; o`zb. evf. boshi ochiq, ozod ayol – ersiz o`rnida.

Xulosa. Turli manbalarda muallif tomonidan o`zbek mentaliteti uchun qo`pol va yoqimsiz, ba`zan so`kinish ma`nosida almashinib keluvchi o`zbek tilining 30 dan ortiq evfemizmlarini aniqlandi. O`zbek xalqi, asosan, qadimgi urf-odat va an`analarga rioya qilgan holda ushbu milliy-madaniy muloqot muhiti uchun nutqda qo`llanilmaydigan bir guruh so`zlarga nisbatan emas, balki boshqa turli tushunchalarning niqoblangan holatiga ham e`tibor qilgan.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Т., 1963.
2. Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Смоленск, 2005.
3. Босчаева Н.Ц. Контекстуальная эвфемия в современном английском языке. – Л., 1989.
4. Бойко Т.В. Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 2005.
5. Adambaeva, N. K., & Khakimov, S. (2017). THE IMPORTANCE OF COMMUNICATION IN ENGLISH IN THE FIELD OF MEDICINE. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 170-172).
6. Adambaeva, N. K., & Xodjametova, L. P. (2017). THE ROLE OF ENGLISH IN MEDICINE. In Лучшая научно-исследовательская работа 2017 (pp. 136-139).
7. Sapayeva, D. N. (2023). Compounding in Various Types of Discourses. Nexus: Journal of Innovative Studies of Engineering Science, 2(9), 9-12.
8. Narbaevna, S. D. (2022). Scientific medical text in the medical paradigm linguistics.